

Karimova Yulduz Baxtiyorovna
(PhD) Farg‘ona davlat universiteti
akademik litseyi o‘qituvchisi
(+998998910263)
Yulduzk228@gmail.com

UDK: 821.512.133.09-1

MAJOZIY OBRAZLARNING BADIY TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida poetik tafakkur atamasining o‘rganilishi, badiiy asar tahliliga yozuvchining individual yondashuvi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, “Lison ut-tayr” dostonida Sharq xalqlariga xos bo‘lgan adabiyestetik tafakkur mezonlari, shoirning poetik mahorati, badiiy so‘z tanlash qudrati tahlil qilingan. “Lison ut-tayr” dostoni haqida jahon navoiyshunoslarning talqin va tahlillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Poetika, poetik tafakkur, poeziya, intellektual tafakkur, tafakkur, syujet, xarakter, qoliplovchi hikoyalari, majoz, allegoriya, g‘oyaviy mazmun.

Аннотация: В данной статье освещаются такие вопросы, как исследование термина поэтическое мышление в узбекском литературоведении, индивидуальный подход писателя к анализу художественного произведения. Также в эпосе «Лисон ут-Тайр» анализируются критерии литературно-эстетического мышления, характерные для народов Востока, поэтическое мастерство поэта, умение подбирать художественные слова. Обсуждаются интерпретации и анализы мировых наводологов по поводу эпоса «Лисон ут-Тайр».

Ключевые слова: поэтика, поэтическое мышление, поэзия, интеллектуальное мышление, мышление, сюжет, персонаж, образообразующий рассказ, метафора, аллегория, идеиное содержание.

Annotation: This article covers issues such as the study of the term poetic thinking in Uzbek literary studies, the writer's individual approach to the analysis of a work of art. Also, in the epic "Lison ut-Tair" the criteria of literary and aesthetic thinking characteristic of the peoples of the East, the poet's poetic skills, and the ability to choose artistic words are analyzed. Interpretations and analyzes of the world's navologists have been discussed about the "Lison ut-Tair" epic.

Key words: poetics, poetic thinking, poetry, intellectual thinking, thinking, plot, character, formative stories, metaphor, allegory, ideological content.

“Mantiq ut-tayr”da “Oltinli odam va uning o‘g‘li” hikoyati quyidagicha beriladi. Bir kishi umri davomida bir qutichada oltin to‘pladi, uni yashirib, hech kimga aytmay o‘lib ketdi. Oradan vaqt o‘tib, o‘g‘li uni tushida ko‘rdi: “Otasining surati sichqonga o‘xshardi, ko‘zlari to‘la yosh edi. Oltinni yashirgan joyida sichqon kabi gir aylanar edi. Farzandi undan bu yerga nima uchun kelganligini, ahvoli hozir qanday ekanligini so‘raydi. Otasi bo‘lsa, shu joyga oltin yashirganini aytib, birov topib olmadimikan deydi. O‘g‘li otasidan nega sichqon suratiga kirganligini so‘raydi. Shunda otasi deydi – “Kimningkim qalbidan oltin ishqil joy olsa, u sichqon suratiga kirar. Ey o‘g‘il, menga boqib ibrat ol va oltin-kumush, xazina-boylikka dil bog‘lama”.

Fariduddin Attor bu hikoyatda ochko‘z inson timsoli orqali boylik insonga vafo qilmasligini aytib, boylik to‘plagan odamni sichqonga qiyoslayapti. Sichqon umri davomida kavagiga narsa toshib o‘tadi, tinmaydi. Ammo bir kun yo mushukka, yo uy egasining qo‘yan tuzog‘iga ilinadi. Inson ham xuddi shunday. Bu hikoyatda sichqon obyekt, ya’ni u har qanday kishi bo‘lishi mumkin. Oltin esa sub’ekt. Har bir sub’ektni o‘ziga tortuvchi kuchli qiroq oltindir. Attorning poetik tafakkurida oltin topishga butun hayotini bag‘ishlagan inson bo‘yo‘gliga o‘xshaydi. Bo‘yo‘g‘li hayot va xayolni oltinda ko‘radi. Bu oltinda shunday tortishish kuchi borki, muallif qahramonini o‘lgandan keyin ham shu boylik atrofida sargardon kezayotgan sichqonga qiyoslayapti. Sichqon qiyofasidagi kishi “birov uni topdimi-yo‘qmi, bilmoqchiman”, – deb halovatsiz. Abadiy sargardon. Muallif tafakkurida sichqon oltinga xirs qo‘yan kishilar qiyofasini aks ettiradi. Alisher Navoiy hikoyatida esa bir devonaning umri davomida boylik izlab, “yetdim deganida, yiqildim”, qabilidagi topilgan boylik nasib qilmasligi, aslida dunyoga kelishdan maqsad nima ekanligini unutib qo‘yan insonlar tasvirlanadi. Shayx Attor hikoyatlarida devona timsoli ijobiy ma’noni anglatsa, Alisher Navoiy hikoyatlarida devona aqldan ozgan, savdoyi odam ma’nosini ifodalaydi. Yuqorida hikoyatlar tahlilidan shu ma’lum bo‘ladiki, ikki ijodkor uslubida o‘ziga xoslik va shu bilan birga uyg‘unlik bor.

“Mantiq ut-tayr” dostonida Kaklik uzriga Hudhud: Sulaymon va uzuk hikoyatini keltiradi. Unda “... Shoh Sulaymonning qimmatbaho gavhari bo‘lib, bu gavharni uzugiga joylaganda, yer yuzi unga qaram bo‘ladi. Sulaymon yer-u osmon o‘ziga qaramligini bilgach, davlat-u boyligining behisob ekanligini ko‘rgach, uzunligi qirq farsax (taxm.280 km.) keladigan soyabon yasatdi. Shamol ham uning farmoniga bo‘ysunardi. Sulaymonning jamiki qudrati o‘sha tosh tufayli doimo mustahkam turardi. Dunyo va din ishlarida bunday mulkka ega bo‘lishning o‘z badali bo‘ladi. Bu mulkning ofati muqarrardir. Hudhud Kaklikka nasihat qilarkan, gavhar emas, Javhar talabgori bo‘l, faqat jonon yuzini ko‘rish uchun jon bergin deydi. Butun qudratni o‘zida jam qilgan uzukdagi gavhar, aslida bir tosh. Muallif poetik tafakkuri orqali uzukdagi gavharni va ko‘ngil gavharini tarozining ikki pallasiga qo‘yadi. Butun ta’rif va tavsiflarni uzuk gavhariga qaratadi. Mamlakat, savlat, shon-shuhrat, soyabon, dunyo, lashkar so‘zлari bilan uni boyitadi. Maqtovini yuksakka olib chiqib qo‘yadi. Ammo bitta so‘z bilan muallif uni sarob ekanligini ko‘rsatadi va tarozining ikkinchi tomonidan turgan ko‘ngil gavhariga butun og‘irliliklarni o‘tkazib sharaflaydi.

Har bir asar shartli ravishda ijodiy tafakkur mevasidir. Bu tafakkur tarzi o‘ziga xos shaklda nutq orqali namoyon bo‘ladi hamda adabiy tur va janrlar talablariga ko‘ra yorqin ekspressivlik, xolislik va ko‘p ma’nolilik kasb etadi. Estetik qimmati yuqori bo‘lgan asarlardagi obrazli iboralar tizimida ifodalananayotgan hayot manzaralari hikmatli xulosalarga boy bo‘ladi. Hazrat Navoiy dostonidagi har bir qahramon shunchaki o‘ylab topilgan emas. Ularni asarga olib kirish bilan qahramonlar zimmasiga katta vazifalar yuklaydi. Bu vazifa asarning estetik va badiiy quvvatini oshirib, mukammal san‘at asari darajasiga olib chiqqan. Sharqona mezon asosida har qanday badiiy asarning bosh markazida komil inson tarbiyasi turadi.

Quyida biz Kaklik timsolini olib kirishdan muallifning asl maqsadini, yoki poetik tafakkurda tug‘ilgan g‘oyaning badiiy asarga singdirish jarayonini ko‘rib chiqamiz. “Lison ut-tayr” asarida Kaklik uzriga javoban Hudhud shunday deydi: Bir ulusning tolei past qallob kishisi bor edi. U bir shaharga borib, o‘ziga “javhariy - qimmatbaho toshlarni ajratuvchi” deb ot qo‘yib oldi. O‘zi esa eshak munchoqni firuzadan ajrata olmasdi. Nafsiyu quyushqondan tashqari chiqarguncha soxta gavharlar yasab, o‘zini gadolikdan xalos etdi. Shishaga har xil ranglar surtib, ularni la’l va yoqut deb qalbakilik qildi. Xalq uning soxta ishlarini chin deb o‘ylardi. Bir kuni o‘sha qallob shu tarzda hunar ko‘rsatib, bir boyga oddiy parcha toshni xushrang qilib (bo‘yab), juda katta pulga sotdi. Ko‘p o‘tmay u bu pulni ishlatib yubordi. Gavhar olgan kishi qalbaki ishdan voqif bo‘ldi: o‘sha muttaham bir tillalik la’l billurni yuz ming tillaga sotgan ekan. Gavhar egasi savdodan aynib, soxta gavharfurushni ushladi va pulini qaytarib berishni talab qildi. Gavharfurushning to‘lashga

hech vaqosi yo‘q edi. Shuning uchun o‘sha muttaham qallobni qiynab o‘ldirdilar. Navoiyning tafakkurida bu obraz boylik topishning oson yo‘lini topgan, lekin bu yo‘l qing‘ir bo‘lib, halokati yaqin va muqarrar degan xulosa ilgari suriladi. Muallif bu obraz orqali halollik insonni kamolotga yetaklashi, qalloblik esa inson halokatini tezlashtirishini ta’kidlamoqda. So‘z qo‘llash va gap qurilishida ham, matnning shakl va mazmunida ham muallif o‘quvchini oson yo‘ldan olib o‘tadi. Tushunarli bo‘lishi uchun o‘zi izoh beradi: (o‘sha muttaham bir tillalik la‘l billurni yuz ming tillaga sotgan ekan). Hadisi sharifda “Al kazzobi la ummati”,¹ (Muhammad (s.a.v.) olg‘onchilar qavmini ummat demas) – deyilgan. Har qanday yolg‘on yomondir va yolg‘onning umri qisqadir.

Har ikki ijodkorning badiiy tafakkur dunyosi keng, poetik mahorati yuksak. Dostondagi har bir majoziy obraz, har bir hikoyat qahramonlari asar kompozitsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Qushlar mualliflarning tafakkuri, dunyoqarashini o‘lchovi sifatida asarning qudratini namoyish qilib beradi. Butun insoniyatga qushlar tili o‘z sirini ochdi. Bu sirni badiiy did va ulkan tajriba egalari mas’uliyat bilan yetkazdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бертелс Е.Э. Навои и Аттар. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1966. С-377-421;
2. Зохидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Ўз адабий нашр, 1961. – Б. 16-46;
3. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи масалалари. – Тошкент: Фан, 1970. – Б.192-198;
4. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги ижодий-матбаа уйи, 2010. – Б.55-63;
5. Фаниева С. Алишер Навоий. – Тошкент: Фан,1968. – Б. 108-111; Зохидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: Ўзбекистон, 1970. – Б. 123;
6. Ҳамидов З. Алишер Навоий “Лисон ут-тайр” асари тилининг лексик-семантик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Фил.фан.ном.дисс.... – Тошкент: 1982;
7. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. Тамаддун нашриёти. –Т: 2018. –Б.286.
8. Имомназаров М. Симурғ мاشаққати. (“Ҳақиқат ва мажоз”). – “Шарқ юлдзузи”, 1991. № 4. –Б. 163.

¹ Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил. Ал-адабул муфрад. Байрут. Дорул башоирел исломия. 442-хадис. – Тошкент: 1989. – Б.158.